

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 109 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	



O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL

Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

"Buxgalteriya hisobi va marketing" kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: toshken_0302@mail.ru

ORCID: 0009-0004-5738-8103

Annotatsiya. Mazkur ishda O'zbekiston va jahon amaliyotida budjet muassasalarida buxgalteriya hisobining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari retrospektiv tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida milliy va xalqaro tajriba qiyosiy jihatdan o'rganilib, budjet hisobining takomillashuv tendensiyalari yoritiladi. Olingan natijalar davlat moliyasini boshqarish tizimida buxgalteriya hisobini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: budjet muassasalari, buxgalteriya hisobi, davlat sektori hisobi, retrospektiv tahlil, budjet hisobi rivojlanishi, jahon amaliyoti, milliy hisob tizimi, moliyaviy hisobot, davlat moliyasi, hisob siyosati.

Abstract. This study provides a retrospective analysis of the stages of formation and development of accounting in budgetary institutions in Uzbekistan and international practice. The research conducts a comparative examination of national and international experience and highlights key trends in the improvement of budgetary accounting. The findings contribute to the further development of accounting in the public finance management system.

Keywords: budgetary institutions, accounting, public sector accounting, retrospective analysis, development of budgetary accounting, international practice, national accounting system, financial reporting, public finance, accounting policy.

Аннотация. В данной работе проводится ретроспективный анализ этапов формирования и развития бухгалтерского учёта в бюджетных учреждениях Республики Узбекистан и в мировой практике. В ходе исследования осуществляется сравнительный анализ национального и международного опыта, а также раскрываются основные тенденции совершенствования бюджетного учёта. Полученные результаты способствуют дальнейшему развитию бухгалтерского учёта в системе управления государственными финансами.

Ключевые слова: бюджетные учреждения, бухгалтерский учёт, учёт государственного сектора, ретроспективный анализ, развитие бюджетного учёта, мировая практика, национальная система учёта, финансовая отчётность, государственные финансы, учётная политика.

KIRISH

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi tarixi xorijiy mamlakatlarga, xususan Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya va Shvetsiya kabi davlatlarga nisbatan ancha zaif o'rganilgan. Budjet muassasalarida buxgalteriya hisobi tizimi davlat moliyasini samarali boshqarish, budjet mablag'laridan oqilona foydalanish hamda jamoatchilik oldida moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Davlat funksiyalarining kengayishi, ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag'lar hajmining ortishi hamda moliyaviy nazoratga bo'lgan talabning kuchayishi budjet muassasalarida buxgalteriya hisobining rivojlanishini obyektiv zaruratga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tizimning tarixiy shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida budjet muassasalari buxgalteriya hisobi uzoq tarixiy davr mobaynida rivojlanib, davlat boshqaruvi tizimi, huquqiy baza va iqtisodiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda takomillashib kelgan. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda budjet hisobining evolyutsiyasi oddiy kassa usulidan hisoblash (akkruall) usuliga



o'tish, xalqaro davlat sektori buxgalteriya standartlarini (IPSAS) joriy etish hamda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish kabi muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar budget mablag'larining harakatini to'liq va ishonchli aks ettirish, davlat aktivlari va majburiyatlarini baholash imkoniyatlarini kengaytirdi.

O'zbekistonda ham budget muassasalarida buxgalteriya hisobi tizimi muayyan tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Sovet davrida markazlashgan rejali iqtisodiyot talablariga mos holda shakllangan buxgalteriya hisobi mustaqillik yillarida tubdan isloh qilindi. Davlat moliyasini boshqarish tizimini bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish, budget jarayonini ochiq va shaffof qilish, hisob va hisobot tizimini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Budget muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi, hisob registrlari hamda moliyaviy hisobot shakllari bosqichma-bosqich takomillashtirildi.

Budget buxgalteriya hisobining retrospektiv tahlili uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, mavjud muammolarning ildizlarini ochib berish hamda jahon tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa kelgusida budget muassasalarida buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur mavzuning dolzarbligi O'zbekistonda davlat sektori hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli buxgalteriya hisobini joriy etish hamda ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish bilan bog'liq islohotlar jarayonida yanada ortib bormoqda. Shu bois, O'zbekiston va jahon amaliyotida budget muassasalarida buxgalteriya hisobining rivojlanishini retrospektiv tahlil qilish ilmiy tadqiqot uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari daromadlari tarkibini shakllantirish masalalari, xususan budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi daromadlari, tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armalari daromadlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budgetdan tashqari jamg'armalari daromadlari, shuningdek tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag'larini undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantirish masalalari O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksida (2014-y.) yoritib berilgan [1].

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalariga bag'ishlangan yo'riqnoma tasdiqlangan bo'lib, unda buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlar batafsil bayon etilgan (2010-y., 105-sonli buyruq) [2].

A.K. Ibragimov va B.B. Sug'irbayevlarning (2010-y.) ilmiy tadqiqot ishlarida budget nazorati va auditini tashkil etishning nazariy hamda amaliy masalalari atroflicha o'rganilgan [3].

M. Ostanakulovning (2009-y.) tadqiqotlarida budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari chuqur tahlil qilingan [4].

S.U. Mehmonovning (2018-y.) ilmiy izlanishlarida budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan [5].

M.X. Saidovning (2011-y.) tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish masalalari hamda budgetdan tashqari mablag'larning tarkibiy jihatlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan [6].

Sh.V. G'aniyevning (2008-y.) ilmiy ishlarida esa ta'lim tizimi misolida budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan [7].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek amaldagi kodekslar, nizomlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar budget tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'lar hisobi bo'yicha muhim nazariy va amaliy asoslarni yaratgan. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda ayrim masalalarning yanada chuqurroq va tizimli o'rganilishi zarurligi mazkur mavzuning alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy xulosalarning asoslanganligini ta'minlash maqsadida tizimli va iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, kompleks baholash, guruhlash hamda xronologik tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar budget muassasalarida buxgalteriya hisobining rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni aniqlash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston hududida budget hisobining shakllanishini IX asr bilan bog'lash mumkin. Aynan ushbu davrda O'rta Osiyoda matematika va algebra fanlariga asos solgan buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy ilmiy faoliyati natijasida hisob-kitobning dastlabki usullari amaliyotga joriy etila boshlagan. Bu jarayonda soliqlarni yig'ish hamda savdo aylanmalarini ro'yxatga olish bilan bog'liq eng sodda hisob shakllari shakllangan bo'lib, mazkur holat xo'jalik faoliyatining asosan qishloq xo'jaligi va savdoga tayanishi bilan izohlanadi.



O'rta Osiyoda buxgalteriya hisobining rivojlanishidagi navbatdagi muhim bosqich XIII asrda yuz bergan mo'g'ul bosqini davri bilan bog'liqdir. Ushbu davrda soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim o'zgarishlar amalga oshirilib, shaxsiy soliqlar joriy etilgan hamda ularni samarali undirish maqsadida aholini ro'yxatga olish tadbirlari tashkil etilgan. Natijada hisob va nazorat mexanizmlarining institutsional jihatdan kengayishiga erishilgan.

Keyingi davrlarda tashqi omillar ta'sirida joriy etilgan ayrim shaxsiy soliqlar uzoq muddat amalda bo'lmagan bo'lsa-da, ushbu tajriba yanada mukammal va adolatli soliq tizimlarining shakllanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, O'rta Osiyoda yer va aholi omillariga tayangan milliy soliq birliklari vujudga kelib, bu holat hisob va soliq amaliyotining mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuviga keng imkoniyat yaratgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston hududida va davlat boshqaruvida buxgalteriya hisobining tarixiy rivojlanish bosqichlari [8].

Davr	Asosiy voqealar
VII asr	Islom dinining qabul qilinishi, masjid va madrasalar tashkil etilishi, savdo bitimlarini yozib qo'yish tamoyilining shakllanishi
IX asr	Muhammad al-Xorazmiy faoliyati, matematika va algebra asoslarining yaratilishi, ibtidoiy hisob usullari, soliq va savdo hisobining yuritilishi
XIII asr	Mo'g'ul bosqini, soliq tizimining o'zgarishi, shaxsiy soliqlarning joriy etilishi, aholini ro'yxatga olish
XIV–XV asrlar	Amir Temur davri, ish hajmi va muddatlari bo'yicha topshiriqlar, vertikal ma'muriy ierarxiya, mablag'larni tejash tamoyili
XIV asr	Temuriylar imperiyasi, hisob protseduralariga qiziqishning ortishi, shaklning mazmundan ustunligi tamoyili
XVII–XIX asrlar	Xo'jalik faoliyati faktlarini qat'iy tartibda ro'yxatga olish, inventarizatsiya opislarining yuritilishi
XIX–XX asrlar boshlari	Rus imperiyasi ta'siri, g'arb buxgalteriya g'oyalari kirib kelishi, mahalliy olimlar nazariyalarining shakllanishi
1924–1991-yillar	O'zbek SSR davri, davlat mulki monopoliyasi, ma'muriy boshqaruv, qat'iy qoidalarga asoslangan hisob tizimi
1996-yil	"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, asosiy tamoyillarning belgilanishi
1998-yil	Milliy buxgalteriya standartlari (MBS) tasdiqlanishi, IFRSga yaqinlashtirish
2010-yil	"Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida"gi Yo'riqnoma (№ 2169) qabul qilinishi
2017–2021-yillar	"Harakatlar strategiyasi", raqamlashtirish jarayonlari, UzASBO va DFMIS tizimlarining joriy etilishi
2018-yildan	Budjet buxgalteriya standartlarini (BBS) IPSAS va GFS–2014 ga moslashtirish
2020–2024-yillar	Yashil budjetlashtirish joriy etilishi, ekologik tasnif (A, B, C, D)
2022–2026-yillar	"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", natijalarga asoslangan budjetlashtirish
2023–2025-yillar	Ichki audit tizimini mustahkamlash, 860 dan ortiq auditorlarning tayyorlanishi
2025-yil	Xalqaro valyuta jamg'armasining SDDS tizimiga o'tish, oylik va choraklik hisobotlarning majburiyligi
2025–2030-yillar	Davlat moliyasini boshqarish strategiyasi, besh ustuvor yo'nalishning belgilanishi

XIV–XV asrlarda O'rta Osiyoda, xususan Amir Temur davrida har bir ishchi uchun ish hajmi va bajarish muddatlari bo'yicha aniq topshiriqlar joriy etildi. Ushbu yangilik nafaqat davlat xo'jaliklarida, balki xususiy xo'jaliklarda ham keng qo'llanila boshlandi. Mazkur davrda vertikal ma'muriy-huquqiy aloqalarning ustuvorligi yakuniy shakllanib, gorizontal fuqarolik-huquqiy munosabatlar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etdi. Natijada, boshliq oldidagi majburiyatlar begona shaxslar oldidagi majburiyatlarga nisbatan muhimroq hisoblandi. Ushbu ierarxik tamoyil, ya'ni rahbar irodasining huquq manbai sifatida tan olinishi, O'zbekistonda davlat mablag'lari buxgalteriya hisobining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilishda muhim tarixiy omil sifatida e'tiborga olinishi lozim. Bu holat mamlakatda buxgalteriya hisobi dastlab xo'jalik faoliyatini boshqarish vositasidan ko'ra, intizom va hisobdorlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Davlat va madrasa xo'jaligining keyingi rivojlanishi mablag'larni tejash tamoyilining shakllanishiga zamin yaratdi. Ushbu tamoyil, avvalo, kalkulyatsiya tushunchasining paydo bo'lishida o'z aksini topdi. Bu davrda narx talab va taklif muvozanatiga emas, balki ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar asosida belgilanadigan ko'rsatkich sifatida talqin qilina boshlandi. Mazkur yondashuvga Amir Temurning "Temur Tuzuklari" asarida keltirilgan daromad va xarajatlarni hisobga olish tizimi yaqqol misol bo'la oladi. Asarda, shuningdek, askarlar sonini aniqlashda toshlardan foydalanish orqali kirim va chiqimni muvozanatlash (balans) amaliyoti bayon etilgan.

XIV asrda mamlakat birlashuvi va Temuriylar imperiyasi mavqeining mustahkamlanishi hisob protseduralariga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshirdi. Natijada, shaklning mazmundan ustunligi tamoyili vujudga keldi. Amaliyotda bu holat O'rta Osiyoda buxgalteriya hisobida hujjatlashtirilmagan xo'jalik faktlari tan olinmasligi bilan ifodalandi, ya'ni birlamchi oqlovchi hujjat mavjud bo'lmagan taqdirda xo'jalik operatsiyasi hisobga olinmagan.

XVII–XIX asrlarda O'rta Osiyoda xo'jalik faoliyati faktlarini qayd etishning qat'iy tartibi shakllandi. Ushbu tartibda oy, sana va yilni majburiy ko'rsatish, yetkazib beruvchi yoki kontragent nomi, kelib tushgan moddiy boyliklar miqdori, birlik narxi, sotib olish sanasi hamda sarflashga oid belgilar aks ettirilgan. Bu davrda buxgalteriya hisobining asosini inventarizatsiya opisilari tashkil etdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rus imperiyasi ta'siri ostida buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha g'arb tajribasi O'zbekiston hududiga kirib kela boshladi. Shu bilan birga, mahalliy olimlar xorijiy tajribani ijodiy qayta ishlash orqali milliy sharoitga mos nazariy yondashuvlarni ishlab chiqdilar, bu esa buxgalteriya hisobining ilmiy asoslarini boyitdi.

1924-yilda O'zbek SSR tashkil topishi bilan mamlakatning barcha sohalarida keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi. Natijada, qariyb 70 yil davomida davlat mulki monopoliyasi va iqtisodiyotni ma'muriy boshqarish tizimi amal qildi. Ushbu sharoitda buxgalteriya hisobi soddalashtirilgan va qat'iy me'yorlar asosida yuritildi hamda davlat nazorati va hujjat shaklining ustuvorligiga alohida e'tibor qaratildi.

XX asr 90-yillari boshlarigacha, ya'ni mustaqillikdan keyingi tub islohotlar boshlanguniga qadar budjet muassasalarida buxgalteriya hisobi SSSR me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida tartibga solib kelindi. Mustaqillikdan so'ng, 1996-yilda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning asosiy tamoyillari belgilab berildi.

Shuningdek, 1990-yillarda Milliy buxgalteriya standartlari (MBS) ishlab chiqilib, ular Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) asoslandi. 1998-yilda dastlabki MBS tasdiqlandi va ular bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirilganligi bilan avvalgi sovet hisob tizimidan tubdan farq qildi.

Mazkur islohotlar muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, umumiy normativ-huquqiy baza budjet muassasalariga xos ayrim o'ziga xos jihatlarni yanada aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu munosabat bilan 2010-yilda "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida"gi Yo'riqnoma (№ 2169) qabul qilinib, budjet muassasalarida yagona hisob yuritish tartibi belgilandi.

2017-yildan keyingi davrda O'zbekistonda budjet muassasalarida buxgalteriya hisobi tizimi davlat moliyasini boshqarish islohotlari doirasida jadal rivojlandi.

2017–2021-yillarda "Harakatlar strategiyasi" asosida budjet hisobi raqamlashtirilib, UzASBO va DFMIS axborot tizimlari joriy etildi. Ushbu tizimlar real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish imkonini yaratdi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida natijalarga asoslangan budjetlashtirish mexanizmlari joriy etilib, xarajatlar samaradorligini baholash va fiskal xatarlarni boshqarish imkoniyatlari kengaytirildi.

2018-yildan boshlab Budjet buxgalteriya standartlari (BBS) bosqichma-bosqich Xalqaro davlat sektori buxgalteriya standartlari (IPSAS) hamda Hukumat moliya statistikasi (GFS–2014) talablariga moslashtirildi. 2020–2024-yillarda "Davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish strategiyasi" doirasida yashil budjetlashtirish joriy etilib, xarajatlar ekologik ta'siriga ko'ra (A, B, C, D toifalari) tasniflandi. 2024-yildan boshlab iqlim o'zgarishiga qarshi chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun maxsus mablag'lar ajratila boshlandi, shuningdek genderni mas'ul budjetlashtirish yo'nalishi rivojlantirilib, tegishli ko'rsatmalar tasdiqlandi va UzASBO–2 tizimiga integratsiya qilindi.

2023–2025-yillarda ichki audit va nazorat tizimi izchil mustahkamlanib, 860 dan ortiq sertifikatlangan auditorlar tayyorlandi hamda PEFA metodologiyasi amaliyotga joriy etildi. 2025-yilda Xalqaro valyuta jamg'armasining Maxsus ma'lumotlar tarqatish standarti (SDDS)ga o'tish yakunlanib, oylik va choraklik hisobotlar majburiy etib belgilandi. 2025-yil – aprel oyida qabul qilingan "2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi" beshta ustuvor yo'nalish va 45 ta tadbirni qamrab olib, budjet hisobini avtomatlashtirish, fiskal qoidalarni kuchaytirish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishni nazarda tutdi. Natijada, 2025-yilga kelib konsolidatsiyalangan budjet daromadlari 476,5 trln so'mga yetib, budjet muassasalarida hisob yuritishning shaffofligi va samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Umuman olganda, O'zbekistonda budjet muassasalarida buxgalteriya hisobi tizimi mustaqillik yillarida izchil va chuqur islohotlar jarayonini boshdan kechirdi. Shu bilan birga, mavjud tajriba va amalga oshirilayotgan islohotlar tizimini yanada takomillashtirish, raqamlashtirishni jadallashtirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish orqali xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu jihatlar keyingi tahlillarda batafsil yoritilishi maqsadga muvofiqdir (2-jadval).



2-jadval. Budjet muassasalarida buxgalteriya hisobi tizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif etilayotgan yechimlar [9]

Muammo	Taklif etilayotgan yechim
Qo'lda yuritiladigan va eskirgan hisob tizimlarining ustunligi	Buxgalteriya hisobini to'liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish, UzASBO va DFMIS platformalarini funksional jihatdan kengaytirish, real vaqt rejimida hisobot shakllantirish
Ichki audit va moliyaviy nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi	Sertifikatlangan auditorlar tayyorlashni kengaytirish (860 dan ortiq), PEFA metodologiyasini amaliyotga joriy etish, korrupsiya xatarlarini tizimli ravishda kamaytirish
Xalqaro standartlarga moslashishda muayyan murakkabliklarning mavjudligi	Budjet buxgalteriya standartlarini (BBS) IPSAS va GFS-2014 talablariga to'liq moslashtirish, hisoblash (accrual-based) usuliga bosqichma-bosqich o'tish, SDDS standartlarini joriy etish
Kadrlar malakasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarining yetarli emasligi	Buxgalteriya va audit sohasida zamonaviy o'quv dasturlari va treninglarni tashkil etish, yangi strategiyalar doirasida besh ustuvor yo'nalish bo'yicha malaka oshirish
Shaffoflik va ma'lumotlar almashinuvining cheklanganligi	Natijalarga asoslangan budjetlashtirishni keng joriy etish, gender va iqlim hisobini integratsiyalash, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish

Qo'lda va eskirgan hisob tizimlari.

Ko'plab budjet muassasalarida, jumladan ta'lim va tibbiyot tashkilotlarida, buxgalteriya hisobini yuritish jarayonlarini yanada takomillashtirish va zamonaviy dasturiy yechimlar bilan boyitish uchun mustahkam asoslar mavjud. Ushbu yo'nalishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisob-kitoblarning aniqqligini oshirish, ish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirish hamda vaqt resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlamogda. Xususan, daromad va xarajatlar hisobi, jumladan ish haqi va qurilish xarajatlari bo'yicha ma'lumotlarni to'liq raqamlashtirish ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlash, moliyaviy axborotlarning ishonchligi va shaffofligini yanada kuchaytirish imkonini bermogda.

Mazkur yo'nalishda raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Jumladan, UzASBO va DFMIS (Davlat fiskal ma'lumotlarni boshqarish tizimi) platformalarini kengaytirish orqali buxgalteriya hisobini to'liq raqamli formatga o'tkazish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. 2025-yilga kelib barcha budjet muassasalarida real vaqt rejimida hisobot taqdim etish tizimini joriy etish rejalashtirilgani hisob xatolarini minimallashtirish va umumiy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, 2024-yilda yashil budjetlashtirish amaliyotining joriy etilishi xarajatlarni ekologik ta'siriga ko'ra (A, B, C, D toifalari) tasniflash orqali budjet jarayonlarining zamonaviy va barqaror modelini shakllantirmogda.

Ichki audit va moliyaviy nazoratning rivojlanishi.

Budjet muassasalarida ichki audit tizimining izchil shakllanib borayotgani moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish yo'lidagi muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim imkoniyatlaridan yanada kengroq va samaraliroq foydalanish moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan PEFA baholashiga (2024-yil) ko'ra, budjet hisobi tizimida shaffoflik va mas'uliyat darajasi barqaror rivojlanish bosqichida bo'lib, xarajatlar nazorati va hisobot mexanizmlarini yanada mustahkamlash uchun qulay institutsional muhit shakllangan.

Shu nuqtai nazardan, PEFA metodologiyasini kengroq qo'llash orqali xarajatlar samaradorligini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ichki nazorat tizimini mustahkamlash imkoniyatlari mavjud. Bu esa moliyaviy boshqaruv sifatini oshirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanishda yuqori natijalarga erishish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari.

Milliy buxgalteriya standartlari (MBS) va Budjet buxgalteriya standartlari (BBS)ning Xalqaro davlat sektori buxgalteriya standartlariga (IPSAS) moslashtirilishi davlat moliyasini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish yo'lidagi muhim institutsional yutuq hisoblanadi. Amaliyotda hisoblash (accrual-based) usuliga bosqichma-bosqich o'tilayotgani mazkur jarayonning puxta va izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Ushbu yondashuvni yanada jadallashtirish budjet taqchilligi va fiskal xatarlarni aniqroq baholash, shuningdek davlat moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, fiskal konsolidatsiya jarayonida aynan ushbu yondashuv strategik ahamiyat kasb etadi.

2025-yilda IMFning Maxsus ma'lumotlar tarqatish standarti (SDDS)ga to'liq o'tilishi rejalashtirilgani oylik va choraklik hisobotlar sifatini oshirish, fiskal intizomni mustahkamlash hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur chora-tadbirlar budjet taqchilligini YAIMga nisbatan maqbul darajada ushlab turish va davlat qarzi barqarorligini ta'minlash orqali davlat moliyasini boshqarish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kadrlar malakasi va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish.

Budjet muassasalarida faoliyat yuritayotgan buxgalterlarning aksariyati an'anaviy hisob yuritish tajribasiga ega bo'lib, bu ularning zamonaviy axborot tizimlari va raqamli hisobotlarga bosqichma-bosqich moslashishini ta'minlamoqda. Ushbu jarayonda malaka oshirish tadbirlari muhim tayanch vazifasini bajarmoqda. Shu bilan birga, genderga mas'ul budjetlashtirish va ekologik hisob kabi ilg'or yondashuvlarni keng joriy etish uchun salmoqli imkoniyatlar shakllanmoqda.

Mazkur yo'nalishda buxgalteriya va audit sohalari bo'yicha zamonaviy o'quv dasturlari hamda amaliy treninglar tizimli ravishda tashkil etilmoqda. Xususan, 2025-yilning III choragida o'tkazilgan tadbirlar doirasida avtomatlashtirish, fiskal qoidalar va davlat-xususiy sheriklik kabi besh ustuvor yo'nalish bo'yicha buxgalterlar va mutaxassislarning malakasini oshirish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Shaffoflik va ma'lumotlar almashinuvi.

Budjet muassasalari hisobot tizimining takomillashib borishi ma'lumotlarni konsolidatsiya qilish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida axborot almashinuvi va tahlil sifati bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda.

Natijalarga asoslangan budjetlashtirishni joriy etish orqali budjetni rejalashtirish va ijro etish jarayonlarining samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida performance-based budgeting amaliyotga tatbiq etilib, davlat xarajatlarning samaradorligini baholash mexanizmlari yanada takomillashtirildi.

Natijada, 2025-yil davlat budjetida konsolidatsiyalangan daromadlar 476,5 trln so'mga yetkazilib, xarajatlarni oqilona optimallashtirishga erishildi. Gender va iqlim hisobini budjet jarayonlariga integratsiyalash orqali budjet tizimining shaffofligi, hisobdorligi va ijtimoiy yo'naltirilganligi yanada mustahkamlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2026-yilga kelib budjet muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritishning shaffofligi va samaradorligi yanada mustahkamlanishi kutilmoqda. Ushbu ijobiy o'zgarishlarni barqarorlashtirish maqsadida doimiy monitoring mexanizmlarini tizimlashtirish hamda xalqaro hamkorlik ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston budjet muassasalarida buxgalteriya hisobi tizimi so'nggi yillarda izchil modernizatsiya qilinib, amaliyotda zamonaviy boshqaruv talablari bilan uyg'unlashib bormoqda. Xususan, ta'lim va tibbiyot muassasalarida hisob yuritish jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish orqali moliyaviy ma'lumotlarning ishonchiligi, tezkorligi va aniqligi ortib bormoqda; bu esa hisob-kitoblarni soddalashtirish, vaqt resurslarini tejash hamda ichki nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ichki audit va moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishda strategik omil bo'lib, bu boradagi chora-tadbirlar xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish va hisobotlar sifatini yaxshilash uchun keng salohiyat mavjudligini tasdiqlaydi. Jumladan, Jahon bankining PEFA baholash natijalari budjet hisobotlarida shaffoflikni yanada oshirish imkoniyatlari borligini ko'rsatib, tizimni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning to'g'ri yo'nalishda ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xalqaro davlat sektori buxgalteriya standartlariga (IPSAS) moslashish jarayoni izchil davom etib, hisob yuritishning hisoblash (accrual-based) usuliga bosqichma-bosqich o'tishi budjet taqchilligi va fiskal xatarlarni yanada aniq baholash, davlat aktivlari va majburiyatlarini to'liqroq aks ettirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kadrlar malakasini oshirish hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish hisobning o'z vaqtida va sifatli yuritilishiga xizmat qilib, shaffoflik va ma'lumotlar almashinuvi kengaytirish orqali natijalarga asoslangan budjetlashtirish, yashil va gender budjetlashtirish kabi zamonaviy yondashuvlarni budjet jarayoniga chuqur integratsiya qilish imkonini beradi. Shu munosabat bilan buxgalteriya hisobini to'liq raqamlashtirish va avtomatlashtirishni jadallashtirish, UzASBO va DFMIS platformalarini funksional jihatdan kengaytirish orqali daromad va xarajatlar hisobini raqamli formatda yuritish, IPSAS talablariga muvofiq accrual-based buxgalteriya hisobiga o'tish jarayonini tezlashtirish, IMFning SDDS standartlari doirasida oylik va choraklik hisobotlarni yuqori sifatda shakllantirish, buxgalter va auditorlar uchun zamonaviy axborot tizimlari bo'yicha muntazam o'quv-treninglarni keng yo'lga qo'yish hamda performance-based budgeting, yashil va gender hisobini budjet jarayoniga izchil integratsiya qilish orqali konsolidatsiyalangan moliyaviy axborot bazasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. – Toshkent, 2014-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida: 2010-yil 17-dekabrda 105-son buyruq. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 22-dekabrda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2169.
3. Ibragimov A.K., Sug'irbayev B.B. Budget nazorati va auditi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: infoCOM.uz MCHJ, 2010-yil. – 192 b.
4. Ostonakulov M. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Ikkinchi nashr. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009-yil. – 428 b.
5. Mehmonov S.U. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018-yil. – 36 b.
6. Saidov M.X. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011-yil. – 432 b.
7. G'aniyev Sh.V. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta'lim tizimi misolida): iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008-yil.
8. Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan materiallar.
9. Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan materiallar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100